XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	



ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH



Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li

Toshkent sh., Toshkent davlat transport universiteti,
“Avtomatika va telemexanika” kafedrası assistenti
ORCID: 0009-0004-4556-0746

Annotatsiya. Ushbu maqola elektr markazlashtirish tizimidagi boshqarish va nazorat releli blokini (P62) zamonaviy, kontaktsiz elementlar asosida takomillashtirish hamda uning matematik modelini ishlab chiqishga bag'ishlangan. P62 blokining poyezd va manevr marshrutlarida ishlashi tahlil qilingan hamda uning ushlash algoritmi tuzilgan. Takomillashtirilgan TP62 blok modelini ishlab chiqishda mavjud P62 blokining kirish va chiqishlari hamda undagi relelarning ishlash funksiyalari yaratildi. Ushbu funksiyalar asosida TP62 modeli Visual Studio muhitida C# dasturlash tilida ishlab chiqildi va dastur yordamida uning ishlashi simulyatsiya qilindi.

Kalit so'zlar: elektr markazlashtirish, maydon tranzistor, matematik model, P62 blok, TP62 blok, Visual Studio, funksiya, marshrut, rele, simulyatsiya.

Abstract. This article is devoted to improving the control and monitoring relay block (P62) of the electric interlocking system based on modern contactless elements, as well as to developing its mathematical model. The operation of the P62 block in train and shunting routes is analyzed, and its holding algorithm is developed. In designing the improved TP62 block model, the input and output functions of the existing P62 block, as well as the operating functions of its relays, were formed. Based on these functions, the TP62 model was developed in the Visual Studio environment using the C# programming language, and its operation was simulated using the software.

Keywords: electric interlocking, field-effect transistor, mathematical model, P62 block, TP62 block, Visual Studio, function, route, relay, simulation.

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию релейного блока управления и контроля (P62) системы электрической централизации на основе современных бесконтактных элементов, а также разработке его математической модели. Проанализирована работа блока P62 в поездных и маневровых маршрутах и разработан алгоритм его удержания. При создании усовершенствованной модели блока TP62 были сформированы функции входов и выходов существующего блока P62, а также функции работы содержащихся в нём реле. На основе этих функций модель TP62 была разработана в среде Visual Studio на языке программирования C#, и с помощью данной программы выполнено моделирование её работы.

Ключевые слова: электрическая централизация, полевой транзистор, математическая модель, блок P62, блок TP62, Visual Studio, функция, маршрут, реле, моделирование.


KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston temir yo'l stansiyalarining qariyb 60 % ida blokli elektr markazlashtirish tizimlari qo'llaniladi va ushbu tizimlarni tashkil etuvchi bloklarning 80 % ga yaqini ma'naviy jihatdan eskirgan hisoblanadi. Mavjud releli bloklar kontaktlarning ishonchligi pasayishi, qurilma holatini doimiy nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligi hamda nosozliklarni bartaraf etishda ko'p vaqt talab etilishi bilan tavsiflanadi. Bu holatlar tashish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois temir yo'l avtomatika va telemexanika sohasida elektr markazlashtirish tizimidagi elektromexanik qurilmalar ishini yanada ishonchli va samarali tashkil etish bilan bog'liq ilmiy-amaliy masalalar dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.


Kechayu-kunduz dinamik rejimda ishlaydigan ijrochi guruh bloklariga tegishli relelar faoliyatida ham shunga o'xshash muammolar kuzatiladi. Ushbu masalalarga yechim sifatida elektromagnit relelarni yarimo'tkazgichli elektron elementlar bilan almashtirishga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada, temir yo'l transportida elektr markazlashtirish tizimlari qurilmalarining ishlash tezligini oshirish, ularning ishonchligi va harakat xavfsizligi darajasini yanada yuksaltirish, shuningdek, poyezdlar harakatiga ta'sirini inobatga olgan holda matematik modellarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda [1–2].

Temir yo'l transportida elektr markazlashtirish (EM) tizimlaridagi bajaruvchi guruh bloklari signallar, strelkalar, qabul qilish–jo'natish yo'llari hamda boshqa qurilmalarni boshqarish va nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Xususan, P-62 bloki qabul qilish va jo'natish yo'llari holatini nazorat qilish, qarama-qarshi marshrutlar o'rnatilishini istisno etish (yon yo'nalishlardan tashqari) hamda harakat xavfsizligini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Temir yo'l avtomatika va telemexanikasi sohasida elektr markazlashtirish tizimining ijrochi guruh bloklariga tegishli P-62 blokini maydon tranzistorlari asosida takomillashtirish orqali TP-62 modeli ishlab chiqilgan. Mazkur takomillashtirilgan TP-62 bloki hamda hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan elektromagnit relelardan tashkil topgan P-62 blokining umumiy ko'rinishi 1-rasm va 2-rasmda keltirilgan [3].




1-rasm. Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan elektromagnit relelardan tashkil topgan P-62 bloki.




2-rasm. Maydon tranzistorlari asosida takomillashtirilgan TP-62 bloki.

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan elektromagnit relelardan tashkil topgan P-62 bloki hamda maydon tranzistorlari asosida takomillashtirilgan TP-62 blokining bitta kontaktiga tegishli elektr sxemalari 3-rasm va 4-raslarda keltirilgan [4].



3-rasm. Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan P-62 blokidagi NMSH releining bitta kontakti uchun elektron sxema.



4-rasm. Maydon tranzistorlari asosida takomillashtirilgan TP-62 blokining bitta kontakti uchun elektron sxema.

Keltirilgan sxemalar asosida elektr markazlashtirish tizimidagi ijrochi guruh takomillashtirilgan TP-62 bloki ichida joylashgan kontaktsiz relelar vazifasidan kelib chiqib har bir rele uchun ularning tokli va toksiz holati uchun funksiyalarini tuzib chiqamiz [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo'l transportida elektr markazlashtirish (EM) tizimlarining ishonchligi va xavfsizligini oshirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, rele-kontaktli qurilmalarni zamonaviy kontaktsiz elementlar asosida takomillashtirish yo'nalishi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

V. V. Sapojnikov, V. I. Shamanov va V. V. Sapojnikovlarning ilmiy ishlarida temir yo'l avtomatika va telemexanika tizimlarining ishonchligini baholash, releli qurilmalarning ishlash xususiyatlari hamda ularning nosozlik holatlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda elektromagnit relelarning mexanik eskirishi va kontaktlarning ishonchlilikka ta'siri asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

J. F. Kurbanov va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektr markazlashtirish tizimidagi boshqarish va nazorat releli bloklarini zamonaviy elektron elementlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mualliflar rele-kontaktli sxemalarni yarimo'tkazgichli elementlar bilan almashtirish orqali tizimning ishlash tezligi va xavfsizlik darajasini oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

D. Efanov, A. Lykov va G. Osadchy ishlarida temir yo'l signalizatsiya va markazlashtirish tizimlaridagi rele-kontaktli sxemalarni testlash hamda diagnostika qilish usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlarda releli zanjirlarni matematik modellashtirish orqali nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, Naghiyev va hammualliflar Yevropa temir yo'l harakatini boshqarish tizimlarida avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilib, an'anaviy releli qurilmalardan zamonaviy boshqaruv texnologiyalariga o'tishning afzalliklarini yoritib berganlar.

Yuqoridagi ilmiy ishlarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, elektr markazlashtirish tizimlarida releli bloklarni kontaktsiz elementlar asosida takomillashtirish, ularning matematik modellarini ishlab chiqish va simulyatsiyalash temir yo'l harakati xavfsizligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Takomillashtirilgan P-62 blokini ishlab chiqish jarayonida, avvalo, mavjud P-62 blokidagi relelar hamda uning kirish va chiqish funksiyalari aniqlanadi va ular diskret qurilma sifatida tadqiq etiladi. (1) ifodada P-62 bloki relelari uchun, (2) ifodada esa uning kirish va chiqishlari uchun funksiyalarning aniqlanish sohalari keltirilgan.

$$f_{HKC}, f_{HKC}, f_{CH}, f_{HI}, f_{HKM}, f_{CHKM}, f_{OKC}, f_{\Pi} \in \{0, 1\}. \quad (1)$$

$$f_{11}, f_{17}, f_{12}, f_{116}, f_{14}, f_{212}, f_{113}, f_{122}, f_{15}, f_{16}, f_{19}, f_{118}, f_{18}, f_{114}, f_{111}, f_{115}, f_{110}, f_{112}, f_{210}, f_{21}, f_{22}, f_{27}, f_{13}, f_{216}, f_{24}, f_{23}, f_{221}, f_{219}, f_{217}, f_{213}, f_{222}, f_{25}, f_{26}, f_{29}, f_{218}, f_{28}, f_{120}, f_{110}, f_{214}, f_{211}, f_{215}, f_{112} \in \{0, 1\}. \quad (2)$$

Elektr markazlashtirish tizimida qabul qilish–jo'natish yo'lining har bir tugash qismi uchun TP-62 blokida ЧКC va HKC kontaktsiz relelari o'rnatiladi (ЧКC va HKC — mos ravishda toq va juft stansiya bo'g'iziga yondashgan tugash qismlari uchun). Yuqorida keltirilgan funksiyalardan foydalanib, ЧКC (3) va HKC (4) relelarining tokli holatini ifodalovchi funksiyalarni tuzamiz:

$$f_{\text{ЧКC}} = (f_{11} \wedge f_{\text{HH}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧKM}} \wedge f_{27}) \vee (f_{11} \wedge f_{\text{HH}} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge f_{110}) \vee (f_{11} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧKM}} \wedge f_{27}) \vee (f_{11} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge f_{110})$$

(3)

$$f_{\text{HKC}} = (f_{21} \wedge f_{\text{ЧH}} \wedge \bar{f}_{\text{HKM}} \wedge f_{17}) \vee (f_{21} \wedge f_{\text{ЧH}} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge f_{110}) \vee (f_{21} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧKM}} \wedge f_{17}) \vee (f_{21} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge f_{110})$$

(4)

TP-62 blokidagi ЧKM va HKM kontaktsiz relelari yakuniy relelar bo'lib, stansiya rejasiga muvofiq qurilgan elektr zanjirlarining barcha harakat yo'nalishlari va toifalari uchun birlashtirilgan holda ishlaydi. Ushbu relelar stansiya rejasiga muvofiq qurilgan elektr zanjirlaridan muayyan marshrutlarni o'rnatish, ajratish va bekor qilish jarayonlarida zarur bo'lgan qismini ajratib olish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari, mazkur relelar juft va toq tomonlardan manyovr marshrutlarini o'rnatishda marshrutning oxirini belgilash vazifasini bajaradi. Mavjud funksiyalardan foydalanib, ЧKM (5) va HKM (6) relelarining tokli holatini ifodalovchi funksiyalarni tuzamiz:

$$f_{\text{ЧKM}} = (f_{221} \wedge f_{\text{ЧH}} \wedge f_{112}) \vee (f_{110} \wedge f_{\text{ЧKM}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧH}} \wedge f_{112});$$

(5)

$$f_{\text{HKM}} = (f_{219} \wedge f_{\text{HH}} \wedge f_{112}) \vee (f_{110} \wedge f_{\text{HKM}} \wedge \bar{f}_{\text{HH}} \wedge f_{112}).$$

(6)

TP-62 blokida ЧH (7) va HH (8) juft va toq istisno qilish relelari mavjud bo'lib, ular stansiyadagi qabul qilish va jo'natish yo'llariga bir vaqtning o'zida juft yoki toq marshrutlarning o'rnatilishini istisno etadi.

$$f_{\text{ЧH}} = (f_{13} \wedge (f_{\text{ЧH}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧКC}}) \vee f_{110});$$

(7)

$$f_{\text{HH}} = (f_{23} \vee (f_{\text{HH}} \wedge \bar{f}_{\text{HKC}} \wedge f_{110}) \vee f_{110}).$$

(8)

TP-62 blokida OKC (9) — umumiy seksiyani nazorat qiluvchi rele mavjud bo'lib, uning vazifasi juft va toq tomonlardan poyezdli yoki manyovr marshrutlari o'rnatilganda HKC va ЧКC kontaktsiz relelarining tokli holatga o'tganini tekshirishdan iborat. Shuningdek, ushbu rele foydalanilmay qolgan marshrutlarni bekor qilish jarayonida ham qo'llaniladi.

P yo'l relesi qabul qilish va jo'natish yo'li relelarining takrorlovchisi bo'lib, o'ziga birlashtirilgan qabul qilish va jo'natish yo'llarining bo'sh yoki band holatini nazorat qiladi (10). Mazkur nazorat orqali band yo'lga marshrut o'rnatilishining oldi olinadi, elektr markazlashtirish tizimi talablariga rioya etilishi ta'minlanadi hamda harakat xavfsizligi yanada oshiriladi.

$$f_{\text{OKC}} = (f_{112} \vee (f_{\text{HKC}} \wedge f_{\text{ЧКC}}) \vee f_{110});$$

(9)

$$f_{\text{П}} = (f_{120} \wedge f_{110}).$$

(10)

Elektr markazlashtirish tizimida qabul qilish–jo'natish yo'lining har bir tugash qismi uchun TP-62 blokidagi har bir kirish va chiqish oyoqchasi bo'yicha funksiyalar tuziladi.

TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun f_{12-24} funksiyasi mavjud bo'lib, u zarur hollarda takrorlovchini yoqish uchun qo'llaniladi. f_{12-216} funksiyasi juft tomondan poyezdli marshrut ochilganda bajaruvchi guruh signalining "C" relesini yoqish vazifasini bajaradi. f_{12-110} funksiyasi esa juft tomondan manyovr marshruti ochilganda bajaruvchi guruh blokidagi manyovr signalining "C" relesini yoqishni ta'minlaydi.

$$f_{12-24} = \bar{f}_{\text{ЧH}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧKM}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧКC}}$$



$$f_{12-216} = \bar{f}_{\text{ЧН}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧКМ}} \wedge f_{\text{ЧКС}} \wedge f_{\text{П1}}$$

$$f_{12-110} = \bar{f}_{\text{ЧН}} \wedge f_{\text{ЧКМ}}$$

Elektr markazlashtirish tizimida TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun f_{22-14} funksiyasi zarur hollarda takrorlovchini yoqish uchun qo'llaniladi. f_{22-116} funksiyasi toq tomondan poyezdli marshrut ochilganda bajaruvchi guruh signalining "C" relesini yoqish vazifasini bajaradi. f_{22-110} funksiyasi esa toq tomondan manyovr marshruti ochilganda bajaruvchi guruh blokidagi manyovr signalining "C" relesini yoqishni ta'minlaydi.

$$f_{22-14} = \bar{f}_{\text{НН}} \wedge \bar{f}_{\text{НКМ}} \wedge \bar{f}_{\text{НКС}}$$

$$f_{22-116} = \bar{f}_{\text{НН}} \wedge \bar{f}_{\text{НКМ}} \wedge f_{\text{НКС}} \wedge f_{\text{П1}}$$

$$f_{22-110} = \bar{f}_{\text{НН}} \wedge f_{\text{НКМ}}$$

Elektr markazlashtirish tizimida TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun $f_{212-110}$ funksiyasi juft tomondagi qabul qilish–jo'natish yo'lidagi strelkali o'tkazgich holatini nazorat qilish uchun qo'llaniladi. $f_{217-110}$ funksiyasi esa toq tomondagi qabul qilish–jo'natish yo'lidagi strelkali o'tkazgich holatini nazorat qilish vazifasini bajaradi.

$f_{113-112}$ funksiyasi toq tomondan zarur hollarda istisno qilish relesining takrorlovchisini yoqish uchun ishlatiladi, $f_{213-112}$ funksiyasi esa juft tomondan shunday vazifani bajaradi.

$$f_{212-110} = f_{\text{ЧКС}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧКМ}}$$

$$f_{217-110} = f_{\text{НКС}} \wedge \bar{f}_{\text{НКМ}}$$

$$f_{113-112} = f_{\text{НН}}$$

$$f_{213-112} = f_{\text{ЧН}}$$

TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun f_{15-210} funksiyasi juft tomondan marshrut o'rnatilgan vaqtida qulflangan relelarni qulfdan ajratish uchun qo'llaniladi. f_{25-210} funksiyasi esa toq tomondan marshrut vaqtida qulflangan relelarni qulfdan ajratish vazifasini bajaradi.

f_{15-122} funksiyasi juft tomondan chiqish svetafori bilan kirish svetaforini bog'lash vazifasini bajaradi, ya'ni chiqish svetaforida taqiqllovchi signal bo'lganda kirish svetaforida sariq ko'rsatkichni yoqadi, chiqish svetaforida ruxsat beruvchi signal bo'lganda esa kirish svetaforida yashil ruxsat beruvchi signalni yoqishni ta'minlaydi.

f_{25-222} funksiyasi ham toq tomondan xuddi shu vazifani bajaradi, ya'ni chiqish svetaforida taqiqllovchi signal mavjud bo'lganda kirish svetaforida sariq ko'rsatkichni, ruxsat beruvchi signal mavjud bo'lganda esa kirish svetaforida yashil ruxsat beruvchi signalni yoqishni ta'minlaydi.

$$f_{15-210} = \bar{f}_{\text{ЧКС}} \wedge \bar{f}_{\text{П1}}$$

$$f_{15-122} = f_{\text{ЧКС}}$$

$$f_{25-210} = \bar{f}_{\text{НКС}} \wedge \bar{f}_{\text{П1}}$$

$$f_{25-222} = f_{\text{НКС}}$$

TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun $f_{212-110}$ funksiyasi juft tomondan zarur hollarda bajaruvchi guruh relelari elektr zanjirlarini ishga tushirish uchun qo'llaniladi. $f_{217-110}$ funksiyasi esa toq tomondan zarur hollarda bajaruvchi guruh relelari elektr zanjirlarini ishga tushirish vazifasini bajaradi.

$$f_{212-110} = f_{\text{ЧКС}} \wedge \bar{f}_{\text{ЧКМ}}$$

$$f_{217-110} = f_{\text{НКС}} \wedge \bar{f}_{\text{НКМ}}$$

TP-62 blokidagi kirish va chiqish oyoqchalari uchun f_{16-110} va f_{16-19} funksiyalari juft tomondan noto'g'ri tuzilgan poyezdli yoki manyovr marshrutlarni bekor qilishga mo'ljallangan elektr zanjirlarini ishga tushiradi.


$$\begin{aligned} f_{16-110} &= f_{\text{ЧКМ}} \\ f_{16-19} &= \bar{f}_{\text{ЧКМ}} \wedge f_{\text{ОКС}} \\ f_{26-110} &= f_{\text{HKM}} \\ f_{26-29} &= \bar{f}_{\text{HKM}} \wedge f_{\text{ОКС}} \end{aligned}$$
$$\begin{aligned} f_{118-18} &= ((f_{\text{HKC}} \vee f_{\text{HKM}} \vee f_{\text{HNI}}) \vee f_{\text{PI}}) \\ f_{218-28} &= ((f_{\text{ЧKC}} \vee f_{\text{ЧKM}} \vee f_{\text{ЧНИ}}) \vee f_{\text{П1}}) \end{aligned}$$
$$\begin{aligned} f_{114-111} &= f_{\text{ни}} \\ f_{114-115} &= \bar{f}_{\text{ни}} \wedge f_{\text{нкм}} \\ f_{214-211} &= f_{\text{чи}} \\ f_{214-215} &= \bar{f}_{\text{чи}} \wedge f_{\text{чкм}} \end{aligned}$$

1020



1. Tizimning kirish va chiqish parametrlari to'plami:



Juft tomondan nazorat seksiyasining bo'sh yoki band holati (**CHKS**);

Toq tomondan nazorat seksiyasining bo'sh yoki band holati (**NKS**);

Juft tomondan istisno qilish holati (**CHI**);


Toq tomondan istisno qilish holati (**NI**);

Juft tomondan marshrutni yakunlovchi holat (**CHKM**);

Toq tomondan marshrutni yakunlovchi holat (**NKM**);

Qabul qilish va jo'natish yo'llarining bo'sh yoki band holati (**P**).


2. Kirish va chiqish signallarini qayta ishlash hamda shakllantirish bloki (TP-62).



5-rasm. Visual Studio dasturidagi TP-62 bloki.


2. Tizimning kirish va chiqish parametrlari to'plami:

- poyezd qabul qilish va jo'natish yo'lini band yoki bo'sh qilganda TP-62 blokiga keladigan ma'lumotlar (1);
- C# dasturini ishga tushirish (TP-62).



6-rasm. TP-62 blokining ishlash modeli.

Stansiyalarda poyezdni qabul qilish jarayonida, avvalo, qabul qilish va jo'natish yo'llarining bo'sh yoki band holati aniqlanadi. Shundan so'ng bo'sh yo'l tanlanib, stansiya navbatchisi tomonidan juft yoki toq tomondan poyezdli marshrut tuziladi va (1) hamda (2) funksiyalar Visual Studio C# dasturi asosida bajariladi.




7-rasm.
a - juft tomon uchun kirish va chiqish oyoqchalari aktivlashuvi,
b - toq tomon uchun kirish va chiqish oyoqchalari aktivlashuvi

Bunda avvalo qabul qiluvchi va jo'natuvchi seksiyalarni nazorat qiluvchi CHKS va NKS kontaktsiz relelarni ishchi holatga o'tkazib CHKS juft tomon uchun 11 va 27 hamda NKS toq tomon uchun 21 va 17 chiqish va kirish oyoqchalarini aktivlashtiradi. Aksincha bo'lganda CHKS va NKS relelari ishchi holatga o'tmaydi va 11, 21 va 21, 17 chiqish va kirish oyoqchalari aktivlashtirilmaydi.



Yuqoridagi funksiyamiz bajarilgandan so'ng juft tomondan tuzilgan mashrut bo'yicha CHKS kontaktsiz releli va toq tomondan tuzilgan mashrut bo'yicha NKS kontaktsiz releli quyidagi (7) va (8) funksiyalar orqali juft tomondan (3) va toq tomondan (4) funksiyalarini istisno qiladi.



8-rasm.

- a — toq tomondan tuzilgan marshrutni CHI kontaktsiz releli istisno qilishi;
b — juft tomondan tuzilgan marshrutni NI kontaktsiz releli istisno qilishi.

Mazkur jarayon qarama-qarshi marshrutlar tuzilganda ularni istisno qilish orqali elektr markazlashtirish tizimiga qo'yilgan talablar asosida poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan (5), (6), (7), (8), (9) va (10) funksiyalar ham xuddi shu ketma-ketlikda Visual Studio C# dasturida qabul qilish va jo'natish yo'llarida juft va toq marshrutlar asosida bajariladi [8–12].

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan elektr markazlashtirish tizimidagi ijrochi guruh bloklari tarkibidagi relelar qimmatbaho materiallardan tayyorlanganligi sababli ularning tannarxi nisbatan yuqori bo'ladi. Buni P-62 blokidagi CHKS va NKS relelari uchun qo'llaniladigan NMSH4–3,4 tipidagi rele misolida ko'rish mumkin. Ushbu rele cho'lg'amlarida ishlatiladigan rangli metall miqdorini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin.

$$m = \frac{\pi^2 d^4 \rho R}{16r}$$

Bu yerda:

- d — cho'lg'am uchun ishlatilgan mis sim diametri;
ρ — mis simning zichligi;
R — cho'lg'am qarshiligi;
r — mis simning solishtirma qarshiligi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, NMSH4–3,4 releli uchun ishlatilgan mis sim miqdori 260 g ni tashkil etadi. Shunga mos ravishda, P-62 bloki tarkibidagi CHKS va NKS relelari uchun jami 520 g mis sim sarflanadi (3-rasm).

Taklif etilayotgan TP-62 blokida ushbu masala samarali hal etilgan, chunki kontaktsiz relelarni tokli holatga o'tkazish uchun cho'lg'am talab etilmaydi (4-rasm). Bu esa material sarfini kamaytirish va qurilmaning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, NMSH4–3,4 rele kontaktlarida qimmatbaho kumush materiallardan foydalanilishi ularning tannarxining nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Xususan, bitta rele uchun taxminan 5 g kumush, ikki dona rele uchun esa 10 g kumush sarflanadi. Taklif etilayotgan TP-62 blokida esa bunday qimmatbaho materiallardan foydalanilmaydi, bu esa qurilmaning iqtisodiy jihatdan yanada maqbulligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, mavjud P-62 blokining og'irligi 14,2 kg ni tashkil etsa, TP-62 blokining og'irligi atigi 3 kg bo'lib, bu uning hajmi kichrayishiga olib keladi hamda bloklarga xizmat ko'rsatish va montaj qilish jarayonlarida sezilarli qulayliklar yaratadi.

Yuqorida ishlab chiqilgan simulyatsiya modelidan foydalanib, poyezdlar uchun qabul marshrutida TP-62 blokining ishlashi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. TP-62 bloki ishini diagnostika qilish

CHKS	NKS	CH	NI	CHKM	NKM	OKS	P	Tavsif
0	0	0	0	0	0	0	0	Marshrut o'rnatilmagan, yo'l band
0	0	0	0	0	0	0	1	Marshrut o'rnatilmagan, yo'l bo'sh
1	0	0	0	0	0	1	1	
1	0	0	1	0	0	1	1	Juft tomondan marshrut tuzildi va qulflandi
0	1	1	0	0	0	1	1	Toq tomondan marshrut tuzildi va qulflandi
0	0	1	0	1	0	0	1	Juft tomondan manyovr marshruti tuzildi va qulflandi
0	0	0	1	0	1	0	1	Toq tomondan manyovr marshruti tuzildi va qulflandi
.								.
.								.
.								.

Yuqorida keltirilgan kombinatsiyalar 256 tagacha davom etadi va ushbu kombinatsiyalar asosida funksiyalar tuziladi. Bu esa TP-62 ijrochi guruh blokining ishlashi jarayonida uni to'liq diagnostika qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda elektr markazlashtirish tizimidagi boshqarish va nazorat releli bloki (P-62) zamonaviy, kontaktsiz elementlar asosida takomillashtirildi hamda uning matematik modeli ishlab chiqildi. Amaliyotda qo'llanilayotgan ijrochi guruh P-62 bloki bilan taklif etilayotgan zamonaviy, kontaktsiz TP-62 blokining afzalliklari va cheklovlari tahlil qilindi hamda aniqlangan jihatlarni bartaraf etish bo'yicha yechimlar ishlab chiqildi.

P-62 blokining poyezdli va manyovrli marshrutlarda ishlash xususiyatlari tahlil qilinib, takomillashtirilgan TP-62 modeli uchun mavjud P-62 bloki asosida kirish va chiqish signallari hamda relelarning ishlash funksiyalari shakllantirildi. Modellash natijalariga ko'ra, poyezdlarni qabul qilish va jo'natish yo'llarining bo'sh yoki band holatidan kelib chiqib, TP-62 blokini boshqarish algoritmi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan model Visual Studio muhitida C# dasturlash tilidan foydalangan holda poyezdlarni qabul qilish va jo'natish jarayonlarida TP-62 blokining barcha texnik holatlari uchun simulyatsiya qilindi. Natijada, kutilishi mumkin bo'lgan ziddiyatli holatlar oldindan aniqlanib, ularning oldini olish imkoniyati yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Kurbanov, J. F., Yaronova, N. V., & Khujamkulov, E. G. Improvement of the Control Relay Blocks in the Electrical Centralization and Control System Based on Modern Elements. In: 2023 International Russian Automation Conference (RusAutoCon), Sochi, Russian Federation, 2023, pp. 988–992. DOI: 10.1109/RusAutoCon58002.2023.10272730.
- Сапожников В. В., Сапожников Вл. В., Шаманов В. И. Надежность систем железнодорожной автоматики, телемеханики и связи. — М.: Маршрут, 2003.
- Курбанов Ж. Ф., Хужамкулов Э. Г., Хокимжонов М. Ю. Improvement of the Control Relay Blocks in the Electrical Centralization and Control System Based on Modern Elements. // The Scientific Journal of Vehicles and Roads. URL: <http://transportjournals.uz/> — С. 210–217.
- Дмитренко И. Е., Устинский А. А., Цыганков В. И. Измерения в устройствах автоматики, телемеханики и связи на железнодорожном транспорте. — М.: Транспорт, 1975.
- Устройства СЦБ. Технология обслуживания. — М.: Транспорт, 1999.
- Курбанов Ж. Ф., Toshboyev Z. B., Khujamkulov Э. Improvement of the Working Algorithm of Braking Devices of Wagons and Sorting Stations // Universum: технические науки: электронный научный журнал. 2023, № 3(108). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15103>
- Курбанов Ж. Ф., Хокимжонов М. Ю., Тошбоев З. Б. Автоматизация и интеллектуальное управление сортировочными процессами // Universum: технические науки: электронный научный журнал. 2023, № 4(109). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15326>
- Efanov, D., Lykov, A., & Osadchy, G. (2017). Testing of Relay-Contact Circuits of Railway Signalling and Interlocking. In: Proceedings of the 2017 IEEE East-West Design and Test Symposium (EWDTS 2017). IEEE. DOI: 10.1109/EWDTS.2017.8110095.
- Сапожников Вл. В. Техническая эксплуатация устройств и систем железнодорожной автоматики и телемеханики. — М.: Маршрут, 2003.
- Архипов Е. В., Гуревич В. Н. Справочник электромонтера СЦБ. — М.: Транспорт, 2000.



11. Shamanov, V. I. Electromagnetic Compatibility of Railway Automation and Telemechanics Systems: Textbook. — Moscow: UMTS for Education on Railway Transport, 2013.
12. Naghiyev, A., Sharples, S., Ryan, B., Coplestone, A., & Carey, M. Rail Control and Automation Technology: Transitions within the European Rail Traffic Management System. In: Contemporary Ergonomics and Human Factors 2016. Eds. R. Charles, J. Wilkinson. — London, United Kingdom: CIEHF, 2019, pp. 2156–2161.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100